

TEMURIYLAR DAVRI MANBASHUNOSLIGI

Zafarova Gulzoda Dilshod qizi

Namangan davlat universitet,

Ijtimoiy fanlar fakulteti, tarix yo'nalishi talabasi

E-mail: gulzodazafarova4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21451157>

Annotatsiya: Maqolada XIV–XVI asrlar Temuriylar imperiyasining trans-mintaqaviy (Markaziy Osiyo, Xuroson, Eron, Hindiston) manbashunosligi germeneytik va dekonstruktiv metodlar orqali tadqiq etilgan. Ishda saroy xronikalari (Yazdiy, Xondamir), vaqf hujjatlari va "Tuzukoti Temur" traktatining evristik imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Ilk bor forsiy va chig'atoy (eski o'zbek) tilidagi manbalar qiyosiy tahlil etilib, Temuriylar renessansi intellektual tarixi va davlatchilik tizimi xolis baholangan.

Kalit so'zlar: Temuriylar renessansi, tarixshunoslik, qo'lyozma, Yazdiy, Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, rasmiy hujjatlar, yorliqlar, vaqfnoma, matnshunoslik, saroy solnomalari, tarixiy geografiya, madaniy hayot, diplomatik aloqalar.

Аннотация: В статье на основе герменевтического и деконструктивного методов исследуется трансрегиональное (Центральная Азия, Хорасан, Иран, Индия) источниковедение эпохи Тимуридов XIV–XVI веков. Рассматривается эвристический потенциал придворных хроник (Йазди, Хондамир), вакфных документов и «Уложений Тимура». Впервые проведен сравнительный анализ персидских и чагатайских источников, что позволило объективно оценить интеллектуальную историю Тимуридского ренессанса и систему государственности.

Ключевые слова: Темуридский ренессанс, историография, рукопись, Язди, Мирхонд, Хондамир, Довлатшах Самарканди, официальные документы, ярлыки, вакфнаме, текстология, придворные хроники, историческая география, культурная жизнь, дипломатические отношения.

Abstract: The article examines the trans-regional (Central Asia, Khorasan, Iran, India) source studies of the Timurid period (14th–16th centuries) using hermeneutical and deconstructive methods. It analyzes the heuristic potential of court chronicles (Yazdi, Khwandamir), waqf documents, and the "Institutes of Timur." For the first time, a comparative analysis of Persian and Chagatai sources is conducted to objectively evaluate the intellectual history of the Timurid Renaissance and statehood.

Keywords: Timurid Renaissance, historiography, manuscript, Yazdi, Mirkhond, Khondamir, Dawlatshah Samarqandi, official documents, yarliks (decrees), vaqfnama (endowment deed), textual criticism, court chronicles, historical geography, cultural life, diplomatic relations.

Kirish. XIV asr oxiri va XV asr boshlarini qamrab olgan Temuriylar davri tarixshunosligi bu davrda Markaziy Osiyo, Eron va kengroq mintaqa tarixini tushunish uchun muhim tadqiqot sohasidir. Temur tomonidan asos solingan Temuriylar imperiyasi jahon tarixida muhim bobni yaratdi, bu harbiy istilolar va mintaqaning siyosiy manzarasiga katta ta'sir ko'rsatgan sulolaviy hukmronlikning o'rnatilishi bilan tavsiflanadi.

Bu davrni o'rganishga tarixshunoslik an'analari va yondashuvlari vaqt o'tishi bilan rivojlanib bordi, tarixchilar Temuriylar davri voqealari, shaxslari va kengroq ijtimoiy

o'zgarishlarini tahlil qilish va talqin qilish uchun turli metodologiyalar, nuqtai nazarlar va manbalardan foydalanganlar.

Quyida Temuriylar davri tarixini yoritgan bir qator yirik manbalarni ko'rib chiqishimiz mumkin. Shunday manbalardan biri G'iyos al-Din Ali Yazdiyning "Ruznomai gazavoti Hinduston" ("Temurning Hindistonga yurishi kundaligi") asaridir. Ushbu asar tadqiqotchilarga Temurning siyosiy faoliyatidagi muhim bosqichni qayta tiklash imkoniyatini beradi. Muallif o'z asarini 1399-yilda tugatib, Temurga taqdim etgan. Asar rus tiliga tarjima qilingan va 1915-yilda nashr etilgan. Taniqli olim A. Semyonovning ta'kidlashicha, "Kundalik" o'zining murakkab va tushunarsiz uslubiga qaramay, Temur davlati tarixi bo'yicha qimmatli faktik materiallarni o'z ichiga olgan juda muhim birlamchi manba hisoblanadi. Mazkur asar Markaziy Osiyoning janubiy qismi – Afg'oniston hududi tarixiy geografiyasi uchun materiallar olish jihatdan muhimdir. Unda mazkur o'lkaning sharqiy -Kofiriston qismining tabiati, savdo yo'llari, aholi maskanlari to'g'risida ma'lumot aks etgan. [4 ,206-bet]

Ispan elchisi Lui Gonsales de Klavixo ham Temuriylar poytaxtiga kelib ko'rganlari haqida o'zining esdalik kitobini yozib qoldirgan. Bu esdalik "Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" deb nomlanadi. Muallif o'z asarida XV asr boshlarida Movarounnahrning ichki ahvoli, uning obod shahar vaqishloqlari, xususan Shahrisabz va poytaxt shahar Samarqand haqida, Amir Temur saroyidagi urf-odat, an'ana va udumlar, Temuriy malikalar va ularning jamiyatda tutgan o'rni haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Garchi Klavixo Amir Temurning otasi Amir Tarag'ayni ko'rmagan bo'lsa-da, u haqda biroz ma'lumot berib o'tgan. Aynan, Klavixo Amir Temur boshchiligidagi olib borilgan marosim, qabul va majlislarida Sohibqironning xotinlari ham qatnashganligini aytib o'tgan. Lui Gonsales de Klavixonning "Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi"da Amir Temur saltanati, jumladan Samarqabddagi binolar-u bozorlar, poytaxtga xorijiy mamlakatlardan olib kelingan mollar haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. [5]

Amir Temur tarixi haqida yaratilgan asarlar orasida Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" ("Temur tarixida taqdir ajoyibotlari") o'zining ba'zi jihatlari bilan alohida o'rin tutadi. Sababi, muallif asarda Sohibqironga nisbatan salbiy jihatlarni ham ko'p ta'kidlab o'tgan. Uning Amir Temurga nisbatan adovatda o'lganligi shu bilan ham belginalar. Yoki u bu asarni yozish davomida o'z davrida Amir Temurga qarshi bo'lgan sulolalar saroyida xizmat qilgan vaqtda to'g'ri kelganligi ham sabab bo'lishi mumkin.

Asar 1436-1437 yillarda yozilgan. [3 ,17-bet]

Temuriylar davri tarixi haqida ma'lumot beruvchi manbalardan yana biri bu "Matla" us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi yoki ikki azim daryoning qo'shilish yeri") dir. Asar muallifi Abdurazzoq Samarqandiy hisoblanadi. Kitob ikki jildidan iborat bo'lib, 1467-1470 yillar oralig'ida yozib tamomlangan. Birinchi jildda Elxoniylar Abu Said davridan (1316-1335) to Amir Temurning vafoti va Xalil Sultonning taxtga chiqishi ya'ni 1405-yil haqida ma'lumot beriladi. Ikkinchi jild esa, 1405-yilda Shohruxning Hirotda hukmdor deb e'lon qilinishidan to Temuriyzoda Abu Saidning o'ldirilishigacha (1469) bo'lgan muddatni qamrab oladi. Kitobning birinchi jildi Abdurazzoqdan ilgari yozilgan asarlar, xususan, Hofizi Abruning "Zubdat ut-tavorixi Boysung'uriy" ("Boysung'urga bag'ishlangan tarixlar sarasi") nomli kitobi asosida yozilgan. Ikkinchi jildi esa, muallifning o'zi hayoti davomida ko'zi bilan ko'rgan va guvohi bo'lgan yoki o'sha voqealar ishtirokchisi bo'lgan odamlardan eshitgan ma'lumotlari asosida yozgan. [1 ,4-bet]

“Majma ut-tavorix” asari ham Temuriylar davri haqida ma'lumot beruvchi manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Asar "Mujmali Fasihiy" deb ham ataladi.

Uning muallifi Fasih Xavofiydir. Bu shaxs Temuriylardan Shohrux va Boysung'ur Mirzo saroylarida xizmat qilgan. Saroy ishlaridan chetlatilgandan keyin u yuqorida nomi keltirilgan asarini yozgan. Kitob muqaddima, ikki qism va xotimadan iborat. Fasih Xavofiy o'z asarini umumiy tarix yo'nalishida yozgan. Asar Temuriy hukmdor Shohruxga bag'ishlangan. Uni marhum Mahmud Farrux 1920-yilda Mashhadda uch jildda nashr ettirgan. Ushbu kitobning uchinchi jildida muallif davrining tarixiy voqealari 1301-yildan 1441-yilgacha bayon etilgan. Muallif asarni 1441-yilda yozib tamomlagan. Asarning ikkinchi qismi biz uchun juda muhim. Sababi, ayana shu qismda Temuriylar davri tarixi uchun bag'ishlangan bo'limida mavjud. [2]

G'iyosiddin Alining asarida o'ta ko'p darajada xushomadgo'ylik bo'lgani uchun Amir Temurga yoqmagach, amir 1392-yildan buyon o'zi bilan harbiy yurishlarda yurgan Nizomiddin Shomiyga sodda va ravon tildan o'z tarixini yozish haqida topshiriq bergan. Amir Temur davriga oid manbalardan biri Nizomiddin Shomiy (1409 yilda vafot etgan) qalamiga mansub “Zafarnoma” asaridir. U Amir Temurning topshirig'iga asosan 1402-1404 yillarda yozilgan. Unda ham vaqf va suyurg'ol tizimlari va boshqa masalaga doir ma'lumotlar keltirib o'tilgan.[6]

Temuriylar tarixiga oid yana bir muhim manbalardan biri Qosim ibn Yusuf Abunasriyning “Irshod al-ziroa” asaridir. Mazkur asar temuriylar davri qishloq xo'jaligi bo'yicha yozilgan yagona asar bo'lib, unda qishloq xo'jaligi, ekinlar ekish tartibi, Hirotda ekiladigan eng asosiy ekinlar va eng muhimi Sulton Husayn davridagi bog'chilik, bog'lar qurilish tartibi, unda ekiladigan daraxtlar va suv bilan bog'liq hisob kitoblar aniq-ravshan ko'rsatib berilgan. Mazkur asar halicha o'zbek tiliga tarjima qilinmagan bo'lib, asarning o'zbekcha nashri dehqonchilikda ko'plab yangicha usullarni ochib beradi. [7].

Xulosa. Temuriylar davri manbashunosligi o'rta asrlar Sharq davlatchiligi, diplomatiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganishda xronologik va hujjatli aniqlikka ega fundamental poydevor hisoblanadi. Mazkur davr tarixnavisligi voqealarni oddiy bayon qilishdan tizimli tahlil etish bosqichiga ko'tarilgani bilan ajralib turadi. N. Shomiy va Sh. A. Yazdiy zafarnomalari, A. Samarqandiy xronikasi hamda Mirzo Ulug'bekning sulolaviy tadqiqotlari saltanatning siyosiy-diplomatik manzarasini chizib bersa, R. G. de Klavixo va Ibn Arabshoh kabi xorijiy va mahalliy mualliflarning asarlari voqelikka xolis hamda qiyosiy nigoh tashlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, davr manbashunosligi faqat siyosiy tarix bilan cheklanmay, "Irshod al-ziroat" kabi asarlar misolida agrar munosabatlar, irrigatsiya va iqtisodiy taraqqiyotning real faktik asoslarini ham qamrab oladi. Xulosa qilganda, arab, fors, eski o'zbek (chig'atoy) va g'arb manbalarining matnshunoslik hamda qiyosiy-tarixiy metodlar asosidagi sintezi "Temuriylar Renessansi" fenomenini global sivilizatsiya kontekstida obyektiv baholash va xalqaro miqyosda ilmiy asoslash uchun hamon ulkan potensialga ega ekanligini isbotlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdurazzoq Samarqandiy. "Matla us-sa'dayn va majma ul-bahrayn". Toshkent-2008. O'zbekiston, 4-bet.
2. Fasih Xofiy. <https://fa.wikipedia.org/>
3. Ibn Arabshoh. "Amir Temur tarixi". Toshkent-1992. Mehnat, 17-bet
4. Гиясиддин, Али. "Дневник похода Тимура в Индию" Перевод, предисловия и примечания А.А.Семенова. -М: Изд. Востмед, 1958. - 206 с.

5. Клавихо Руи Гонсалес де. Самарқандга-"Амир Темур сайройига саёҳат кундалиги" (1403- 1406 йиллар).-Тошкент: Ўзбекистон, 2010
6. Низомиддин Шомий. "Зафарнома" Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 527 б.
7. М. Е. Subtelny, "A Medieval Persian Agricultural Manual in Context: The Irshād al-zirā‘a in Late Timurid and Early Safavid Khorasan," – Stud. Iran 22/2, 1993 – p. 175.